

O'ZBEKISTONDA FOLKLOR MUSIQA SAN'ATINI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI

Sadullayeva F. S.

Jizzax viloyat pedagogic mahorat markazi tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15342470>

Musiqiy folklor namunalari muayyan bir hududda yashovchi aholining turmush tarzidagi urf-odatlar, marosimlar, mehnat jarayonlari bilan uzviy bog'liq ravishda yuzaga kelgandir. Folklor janrlariga asoslangan o'zbek musiqa san'ati va madaniyatimiz jahon miqyosida shuhrat qozonib, takomillashib bormoqda. Musiqiy folklor namunalari muayyan bir hududda yashovchi aholining turmush tarzidagi urf-odatlar, marosimlar, mehnat jaraenlari bilan uzviy bog'liq ravishda yuzaga kelgandir. Folklor janrlariga asoslangan o'zbek musiqa san'ati va madaniyatimiz jahon miqesida shuhrat qozonib, takomillashib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan Termiz shahrida o'tkazilgan tarixiy ahamiyatga ega nufuzli —Xalqaro baxshichilik san'ati festivali (2019 yil 5-10 aprel), Boysun tumanida o'tkazilaetgan —Boysun bahori (2019 yil 28-29 aprel) an'anaviy Xalqaro ochiq festivalining o'tkazilishi bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimizda folklor qo'shiqlarisiz biron bir tadbir yoki bayramlarni o'tkazilishini tasavvur qilish qiyin. Barkamol avlodni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yosh xonanda, sozanda va raqqosalarni boy nomoddiy madaniy merosimiz, asrlar davomidagi an'analarimiz va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, yosh iste'dodlarni kashf etish, ustoz san'atkorlarning betakror ijrochilik uslubini, ular misolida yanada rivojlantirish, xalk og'zaki ijodi namunalari jumladan, Buxoro qo'shiqchiligiga xos ijro an'analarini tiklash, ushbu merosni asrab avaylash, maqsadida Buxoro musiqiy fol'klori bilimdonlari, O'zbekiston xalq hofizi Moshe Boboxonov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Oliyaxon Hasanova, Muazzamaxon Omonova, To'xfaxon Pinxasova, Homidjon Jalolov, mashhur ijrochilar Muhammad Shodi, Mehdi Ibodov, xotiralariga bag'ishlab "Xalq ohanglari tarovati" viloyat ko'rik – festivali 2012 yilda o'tkazildi.

Bundan tashqari xalq ijodiyotini folklor-etnografiya yo'nalishida faoliyat olib borilayotgan jamoalar ijodi bilan yaqindan tanishtirish, ularning dasturlaridan o'rin olgan musiqa san'ati va xalq ijodiyoti durdonalarini hududlarga xos bo'lgan an'ana, urf-odat va marosimlar bilan birga ko'rsatish, shu orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirib borish, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish maqsadida Vazirlik hamda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan joylardagi badiiy havaskorlik jamoalari ishtirokida "Ko'hna zamin ohanglari" xalq ijodiyoti (folklor) san'ati Respublika festivali shuningdek, boshqarma va viloyat televideniyasi bilan hamkorlikda viloyat miqyosida "Boqiy taronalar" telefestivali o'tkazildi. Qadim zamonlardan beri to'y marosimlarda ijro etiladigan yor-yorlar, yallalar, laparlar, Buxoro folklor qo'shiqlari jamoa bo'lib ijro etilgan. Ushbu an'anaviy marosim qo'shiqlari erkaklar va ayollar tomonidan unison, ya'ni bir ovozlik ijro etilgan. O'zbek xalqining ana shunday an'anaviy folklor qo'shiqlari va ularning azaldan jamoa bo'lib ijro etilishi kelgusida o'zbek xalqi orasida folklor havaskorligining, qolaversa Buxoro folklor san'atining rivojlanishiga zamin bo'ldi. Sharq xalqlarining musiqa merosida usul, ritm-yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bois ulug' allomalarimiz abu nasr-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mavlono Kafkabi Buxoriy, Darveshali Changiylar

o'zlarining musiqaga doir risolalarining ma'lum boblarini usullarning nazariy tahlili va tadqiqiga bag'ishlaganlar. Ma'lumki usulni urma cholg'u sozlaridan asosan doira boshqaradi. Inchunin, musiqa ijrochiligida doirachidan yuksak iste'dod, tug'ma ritm va mustahkam musiqiy xotira talab etiladi. Xususan Buxoro shashmaqomi va xalq folklor qo'shiqlari – "Buxorcha" hamda "Mavrigi" turkumlarining ritmik ijrosi o'ta murakkabligi va o'ziga xosligi bilan respublikamizning boshqa vohalari xalq musiqasi ijrochiligidan keskin farq qilganligi tufayli doirachidan katta mahoratni talab etadi. Buxoro folklor qo'shiqlari nog'ora, ravona, chillaki, safolak, javoniy, miyonxona, furovard singari doira usullaridan tashkil topgan va bu usullar ustozdan shogirdga mukammal o'tib kelmoqda. O'tmishda (hozirda ham) xar bir san'atkor yetuk ijrochi bo'lishi uchun xalq xizmatiga, to'y marakalariga borib el nazaridan o'tishi lozim edi. Buxoro musiqiy folklori bilimdonlari, "Sozanda" san'atining yirik vakillari, nomdor san'atkorlar To'faxon, Oliyaxon opa ham sozanda sifatida xalqqa xizmat qilib, katta obro' e'tibor qozongandi. Uning to'ydagi xizmati maxsus dastur asosida ikki qism va to'rt paytdan tuzilgan quyidagi shaklda shinavandalarga namoyish etilgan.

"Baxshi" [1] mo'g'ulcha va buryatcha-baxsh (bag'sha-ma'rifatli, o'qituvchi), turkmanlarda-bag'shi, qoraqalpoqlarda-baqsi va hokazo tarzida ishlatilgan [2]. Baxshilar tomoshagohda tinglovchilarning xohishiga qarab, ularga moslab, dostonlarni erkin ijro qilgan. O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida baxshichilik san'ati xalq tomonidan juda qadrlangan. Baxshilar to'ylarda xizmat qilib, xalqning olqishiga sazovor bo'lgan. Baxshilar kuylayotgan dostonlarda, termalarda xalqimizning beqiyos jasorati, bukilmas irodasi, mustahkam iymon-e'tiqodi, yorug' kelajakka bo'lgan qat'iy ishonchi baralla tarannum etiladi. Mustaqillik yillarida Abdulla shoir Nurali o'g'li, Qodir baxshi Rahimov Moskva, Parijda, Qahhor baxshi Qodir o'g'li AQShda va boshqalar baxshichilik san'atini namoyish etib, olqishlarga sazovor bo'lishdi [3].

Ustoz san'atkorlar To'faxon, Oliyaxon o'z guruhlarini bilan konsert ijrochiligini yo'lga qo'yib, "Nozanin", "Moxi-sitora" ijodiy dastasini tashkil etdilar va mazkur guruh bilan viloyat aholisiga konsertlar namoyish etib, madaniy xizmat ko'rsata boshladilar. Har ikki guruh qisqa muddatda el nazariga tushib mashhur bo'lib ketdi. Ansamblarning muvaffaqiyati respublika radio va televideniyesi orqali, maxsus ko'rsatuvlar orqali namoyish qilina boshladi. Mazkur jamoani nafaqat viloyat, balki Toshkentda o'tkaziladigan umumxalq bayrami tadbirlari konsertiga ham taklif eta boshladilar. Bugungi kunda respublikada professional raqs jamoalari qatorida izlanuvchanlik bilan ijod qilib kelayotgan va o'z ijro yo'liga ega bo'lgan "Moxi Sitora" folklor-etnografik ansamblining badiiy rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, mohir raqqosa marhum Oliyaxon Hasanovanning xizmatini ta'kidlab o'tish joiz deb o'ylayman. "Moxi Sitora" ansambl o'ziga xos ijro dasturiga ega bo'lgan badiiy jamoa sanalib, uning dasturidan Buxoro xalq ijodiyoti, etnografiyasi va san'atiga daxldor turli milliy marosimlar, urf-odatlar hamda udumlariga xos qo'shiq va raqslar joy olgan. Xususan, buxorcha to'y marosimi: beshik to'yi, sunnat to'yi, hinobandon, nikoh to'yi, sallabndon singari marosimlarning turkumlashgan ko'rinishlari alohida tarzda ijro etilardi. Gap shundaki mazkur marosimlarning har biriga mos sahna kiyimlari, qayroq, zang, doira singari urma sozlari, rang-barang raqslar, mavrigixonlik, salomnomaxonlik, muxammasxonlik aytimlari tanlangan ediki, bu ansambl ijrosini yanada mukammallashtirib unga xalqchil ruh bag'ishlaydi. Bundan tashqari ansambl dasturida yoshlar va muhabbat haqidagi qo'shiqlar talayginadir. Ansamblning tinimsiz mashqlari va izlanuvchanligi ansambl shuxratini nafaqat

respublikamiz, balki uning tashqarisida ham mashxur qildi. Bunga sabab albatta ansamblning viloyat, respublika va xalqaro miqyosida o'tkazilgan turli ilmiy-amaliy simpoziumlar, festivallar, ko'rik tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni olishidir.

Ansambl jamoasi o'zbek musiqa folklorini xorijiy davlatlarda targ'ib qilishda ham ancha fidoiylilik qildi. U Fransiya (1999-2006 yillar), Germaniya (2002 yil), Rossiya federatsiyasida (4 marta) gastrol safarlari va xalqaro festivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Mohir murabbiy, Buxoro folklor qo'shiqlarining bilimdoni Oliyaxon Hasanova shogird tayyorlash borasida ham samarali xizmat qildi. Uning shogirdlari bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki AQShda ham qizg'in ijodiy faoliyat ko'rsatmoqdalar. Jumladan, Viktoriya Laurel Grav va Tereza Fontanne Jarelli singari amerikalik raqqosalar 1992 yilda Buxoroga kelib, olti oy muddatda Oliyaxonga shogird tushdilar va natijada "Buxorcha", "Tanovor", "Pilla" kabi milliy raqslarni o'rganib, ayni paytda uni ko'pgina mamlakatlar sahnalarida namoyish etib kelmoqdalar [4].

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxshi – shoir – do'mbira yoki dutor jo'rligida doston yo'llarini ijro etish bilan birga, turli mavzularda o'zlari ham she'r va dostonlar yaratuvchilar. Akbarov I. Musiqa lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi", 1997. – B. 37.
2. Matyoqubov B. Dostonchilar // Guliston, 1995, №4, -B.22-23.
3. <http://www.xs.uz>
4. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida folklor etnografik jamoalari faoliyatini yo'lga qo'yish uslublari (uslubiy qo'llanma). – Buxoro, 2014. – B.2-8.
5. Asilbek, Khojayorov. "History of Sufism in Nasaf Oasis." Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599) 1.6 (2023): 15-19.
6. Ходжаёров, Асилбек Отабек угли. "СОМОНИЙЛАР ДАВРИДА НАСАФ ШАҲРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҲАЁТИ." ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ 6.1 (2023).
7. Хўжаёров, Асилбек Отабек ўғли. "ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ АЛЛОМАЛАРИ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 21. 2022.
8. Хўжаёров, Асилбек. "ЎРТА АСРЛАРДА НАСАФ ВОҲАСИ ИЛМИЙ-АДАБИЙ ҲАЁТИ." Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования 2.7 (2023): 41-43.
9. Бўриев, Очил, Шерзод Искандаров, and Асилбек Хўжаёров. "Абу Райҳон Берунийнинг "Ҳиндистон" асари ноёб этнографик манба сифатида." Academic research in educational sciences 3 (2022): 399-411.